



## Farzand tarbiyasi va ota-onalar o'rtasidagi tafovutlar psixologik omili sifatida.

**Mamayusupova Iroda  
Xamidovna**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti  
Psixologiya kafeda katta o'qituvchisi  
Psixologiya fanlari nomzodi (Phd)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola farzand tarbiyasi va unda ota-onaning o'rni, ma'suliyati hamda vazifava burchlari masalalariga bag'ishlanadi. Shuningdek ushbu maqolada farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayon ekanligi ta'kidlangan. Shu boisdan bu kichik tadqiqot tarbiyachilar, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** oila, jamiyat, ota-ona, burch, tarbiya, xulq-atvor, sog'lom avlod, psixologiya, ma'naviy yetuklik.

### **Kirish.**

Xalq pedagogikasi barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid barcha masalalarni o'zida mujassam etgan. Shunga ko'ra barkamol shaxs vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ahllik, ilm va kasb-hunarga mehr-muhabbat, adolatlilik, ziyraklik, tashabbuskorlik, e'tiqod va sadoqatlilik, oqibatlilik, odoblilik kabi fazilatlarga ega bolishi, shu bilan birga chuqur ilm egallashi, vaqtning qadriga yetishi, xalq udumlari va milliy urf-odatlarini yaxshi bilishi va qadrlashi, diniy ta'limotlarni to'g'ri tushunishi, muomala odobi va kiyinish madaniyatiga rioya qilishi lozimligi uqtirilgan. Bu fazilatlarning aksi bo'lgan nodonlik, badxulqlilik, manmanlik, qo'rqqoqlik, yolg'onchilik, odobsizlik, insofsizlik, sabrsizlik, baxillik, kibru havo, hasadgo'ylik, farosatsizlik kabi illatlardan xoli bo'lishi talab etilgan. Ana shu ijobiy fazilatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo'yicha xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud.

### **Asosiy qism.**

Inson yaralibdiki o'zining oilasida tarbiyalanadi. Onalar farzand tarbiyasida hamisha oilada muhim o'rin tutganlar. Farzand tug'ilgandan keyin ham otasi ish yoki boshqa sabablar bilan ko'p vaqt uyda bo'lmaydi, tarbiyaga doir zarur og'itlar, ko'rsatmalar bergan holda, asosiy ishi moddiy ta'minot bo'lib qolaveradi. Illo, ona soliha, ilimli bo'lsa, farzandi kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishi uchun astoydil harakat qiladi. Agar "nega farzand tarbiyasi yolg'iz mening zimmamda bo'lar ekan?!" deya u ham tarbiya bilan shug'illanmasa, nafaqat bir bolaning balki butun boshli

millatning kelajagini barbod qiladi. Farzand tarbiyasi va ota-onalar o'rtasidagi tafovutlar — bu jamiyatdagi turli tafovutlar, madaniyatlar, va individual qarashlar asosida shakllanadi. Har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalashda o'ziga xos usullarni tanlashi mumkin, va bu usullar ko'pincha ota-onaning madaniyati, dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari, va tarbiya sohasidagi shaxsiy tajribalariga bog'liq bo'ladi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi farqlar, shuningdek, avlodlar o'rtasidagi tafovutlar va jamiyatdagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq.

**1. Madaniy va tarixiy tafovutlar** Farzand tarbiyasi ko'pincha ota-onaning madaniy kelib chiqishiga qarab farqlanadi. Masalan:

- **Sharq madaniyatida** ota-onalar farzandlariga ko'proq hurmat, odob va jiddiylikni o'rgatishga e'tibor qaratadilar. O'zbekistondagi an'anaviy oilalarda, masalan, ota-ona farzandlarni odob-axloq, mehnatsevarlik, hurmat va qaror qabul qilishda qat'iyatlilikka o'rgatadi.

- **G'arb madaniyatida** farzand tarbiyasida ko'proq shaxsiy erkinlik, individualizm va farzandning hissiy holati va rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Farzandlar o'z fikrlarini ifoda etish, qarorlar qabul qilishda erkin bo'lishi kutiladi.

**2. Tarbiyadagi yondashuvlar** Ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashda turli yondashuvlarga ega bo'lishi mumkin. Bu yondashuvlar asosan ota-onaning shaxsiy tajribasiga, qarashlariga va tarbiya usullariga bog'liq:

**Avtoritar yondashuv:** Ota-ona farzandiga qat'iy buyruqlar beradi va unga ortiqcha erkinlik bermaydi. Bu usulda farzandlarning o'z fikrlarini ifoda etish va mustaqil qarorlar qabul qilishda cheklovlar bo'lishi mumkin.

**Demokratik yondashuv:** Ota-onalar farzandning fikrini eshitib, unga qarorlar qabul qilishda yordam beradi, lekin shu bilan birga ma'lum bir chegaralarni belgilaydi. Bu yondashuv farzandning mustaqil fikrlashini va javobgarlik hissini rivojlantirishga yordam beradi.

**Permissiv (ozod) yondashuv:** Ota-onalar farzandlariga juda oz miqdorda cheklovlar qo'yadilar va ko'proq farzandning istaklariga moslashadilar. Bunda farzand o'zini erkin his qilishi mumkin, lekin bu yondashuvda ba'zan me'yorlar va tartiblar yo'qolishi mumkin.

**3. Farzandning tarbiya jarayonidagi roli** Farzand tarbiyasida ota-ona faqatgina ustoz yoki rahbar sifatida emas, balki farzandlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi zarur. Jamiyatda farzandlarning ota-ona va jamiyatga nisbatan hurmati, odobi va axloqi bo'yicha o'qish va o'rganish jarayonlari muhim. Ota-onalar farzandlariga muomala qilishda o'z misollarini ko'rsatishlari kerak. Farzandlar ko'pincha ota-onalarning harakatlarini, so'zlarini va ularning o'zaro munosabatlarini kuzatib, o'z tarbiyasini tashkil etadilar.

**4. Tarbiyadagi zamonaviy o'zgarishlar** Zamonaviy hayot tarzi, texnologiyalarning rivojlanishi, va yangi pedagogik yondashuvlar ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Masalan:

- **Texnologiya va internet:** Bugungi kunda farzandlar ko'pincha onlayn resurslar, ijtimoiy tarmoqlar va o'yinlar bilan shug'ullanadilar. Bu farzand tarbiyasiga yangi chaqiruvlar kiritmoqda va ota-onalar internet xavfsizligi, axloqiy qiymatlar va texnologiyalar bilan ishlashda o'z farzandlariga to'g'ri yo'lni ko'rsatishga harakat qilishmoqda.

- **Jinsiy tenglik va farqlilik:** Jamiyatda jinsiy tenglik, o'qish va ish bilan bog'liq imkoniyatlar bo'yicha farqlarni yo'qotishga intilish tarbiyada ham o'z aksini topmoqda. Ota-onalar farzandlariga har qanday jinsdan kelib chiqmagan holda, teng imkoniyatlar va huquqlarni tanitishga harakat qiladilar.

**5. Farzand va ota-ona o'rtasidagi hissiy munosabatlar** Farzandning ruhiy va hissiy rivojlanishi ota-ona bilan bo'lgan aloqaga, sevgi, hurmat va ishonchga bog'liq. Ota-ona farzandiga o'z sevgisini, qo'llab-quvvatlashini va xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu turdagi ijobiy munosabatlar farzandning psixologik sog'lig'iga katta ta'sir ko'rsatadi va uning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. O'git-nasihat qilish, ibrat-o'rnak ko'rsatish, rag'batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo'llab kelgan bo'lib, uning quyidagi ijobiy shakllari:

- > tushuntirish;
- > o'rgatish, mashq qildirish;
- > odatlantirish;
- > kun tartibini rejalashtirish;
- > yaxshi xislat va ishlarga undash;
- > istak bildirish;
- > maqtash;
- > olqish aytish;
- > duo qilish;
- > alqash;
- > tasalli berish;
- > m ukofotlash, taqdirlash;

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarda ijobiy fazilatlarni, tarbiyani shakllantirish uchun birinchi navbatda oila a'zolari ota-ona, aka-uka, opa-singil va oilada kattalarga bo'lgan mehr-muhabbat hissini tarbiyalash zarurligiga amal qilingani ko'rinadi. Oilada bolalarning kattalarga bo'lgan mehribonligi tarbiya natijasidagina tarkib topadigan ma'naviy fazilat ekanligi ta'kidlanadi. Tarbiyani insonga yetkazishda ota-onaning o'rni beqiyosligini Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) ta'kidlaydilar. Abu Hurayra(roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): "Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi...". Bu hadisi sharifdan irsiyat, ya'ni biologik omil insonni shakllanishida asosiy o'rin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi G'arb faylasuf va oqimlarining fikrlari asossiz ekanini va tarbiyaning muhimligini bilib olamiz. O' rta Osiyolik mutafakkirlardan Forobiy va Abu Ali ibn Sino inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berganlar. Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..." deydi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi. Ulug'larimiz hayotiga nazar soladigan bo'lsak, ularning onalari hatto otlari vafot qilganda ham moddiy ta'minotni o'z zimmalariga olishgan, han farzand tarbiyasi bilan

shug'ullanishgan. Yillar davomida chekilgan zahmat natijasida Imom Ahmad, Imom Buxoriy kabi buyuk insonlar yetishgan. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham shunday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham shunday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar.

Onaning tarbiya maskani zararga yo'liqsa, nasllarda o'nnganmaydigan yaralar ochiladi, onani yuqotadi. Farzandning ilk tarbiya makoni onaning ko'ksidir. Bolaning dunyo va ohiyat hayotiga bog'liq bilimlarga ona mehru muhabbati bilan berilishi eng go'zal tarbiya shaklidir. Bolaning tarbiyalanishida ota-onalar o'z farzandlariga ma'naviy merosimiz bo'lgan milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, udumlarning o'ziga xosligini asta sekinlik bilan tushuntirib borishga ma'suldirlar. Zeri, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek "Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir". Farzandning tarbiyalanishida ota-onalar diniy ta'limotlarga ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Diniy tarbiyada bola Vatanga muhabbat bilan ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim".

### **Xulosa**

Farzand tarbiyasi va ota-onalar o'rtasidagi tafovutlar jamiyatda va madaniyatda o'zgarishlar, shuningdek, avlodlar o'rtasidagi tajriba va qarashlarning farqlanishi natijasida yuzaga keladi. Har bir ota-ona o'z farzandiga o'rgatadigan qadriyatlar va tarbiya usullari uning hayot tajribasiga, qarashlariga va muhitga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, farzand tarbiyasining samarali bo'lishi uchun ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muloqot, ishonch va o'zaro hurmat zarur. Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Har bir ota-ona farzand tarbiyasida albatta ota-bobolarning fikrlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro' olib keladigan yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulg'ayishadi. Ota-ona bolaning vaqtini to'la qamrab oladigan zarur va manfaatli mashg'ulotlarni tayyorlashi kerak va ana o'sha mashg'ulotlar bolaning ongini rivojlantirivchi bo'lishi shart.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimaxon Kamolova yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. "Science and Education" Scientific Journal / December 2022 / Volume 3 Issue 12. 590-592 betlar
2. Niyozmetova R. XX asr o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini belgilash masalalari. - T.: TDPU, 2000. - 105 b.
3. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyoti o'rganish metodikasi. - T.: Fan. 2007. - 215 b.
4. Nishonova S. SHarq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotidabarkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dok. diss... - T.: 1988. - 289 b.

5. Okont V. OsnovM problemnogo obucheniya. - M.: Prosvern,enie, 1998. - S. 87-98.

6. Ochil Safo. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari: (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimov asarlarimisolidida). 2 - to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri. O'qituvchi. - T.: 1997. - 256 b.